



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGINING
BUYRUG‘I

30 yanvar 2024 yil.

23-16-son

Iqtisodiyot va moliya vazirligining ochiqligini ta’minlash maqsadida ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarni axborot resurslarida joylashtirish va yangilab borish tartibini belgilash to’g’risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-6247-sonli hamda 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-154-sonli Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasida ochiq ma’lumotlar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 808-son, 2021-yil 15-iyundagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 373-son qarori ijrosini ta’minlash hamda rasmiy veb saytda yangiliklar, maqolalar va boshqa turdagi ma’lumotlarni e’lon qilish tartibini joriy etish maqsadida, buyuraman:

1. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan budjet ochiqligini ta’minlash maqsadida ma’lumotlar rasmiy veb-saytlarga joylashtirilishini baholab borish va reytingi yuritilishini nazorat qilish bo’yicha ishchi guruh 1-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda vazirlik huzuridagi tashkilotlar tomonidan qonunchilik hujjatlari bilan rasmiy veb-saytlarda ochiqlanishi belgilangan ma’lumotlarning o‘z muddatida va sifatli tarzda e’lon qilinishini nazorat qilish bo’yicha ishchi guruh 2-ilovaga muvofiq tashkil etilsin.

2. Axborot xizmati va “Axborot texnologiyalari markazi” DUK (O. Eshchanov) Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda vazirlik huzuridagi tashkilotlar tomonidan tegishli veb-saytlarga joylashtirilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni sifatli va belgilangan muddatlarda e’lon qilib borish bo’yicha ishchi organ etib belgilansin.

3. Quyidagilar:

veb-saytda e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar va ushbu ma’lumotlarni taqdim etuvchi tarkibiy tuzilmalar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyati natijalari yuzasidan infografikalarni vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar 4-ildavaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tarkibiy tuzilmalar tomonidan vazirlikning rasmiy veb-saytiga ma'lumotlarni joylashtirish tartibi 5-ildavada keltirilgan sxema asosida amalga oshiriladi.

5. Mazkur buyruqning 3 va 4-ildovalardagi ma'lumotlarning o'z vaqtida va sifatli tarzda ishchi organga taqdim etilishiga shaxsan tegishli tarkibiy tuzilmalar rahbarlari javobgar hisoblanadi.

6. Ma'lumotlarni taqdim etuvchi tarkibiy tuzilmalar tomonidan tegishli ma'lumotlar e'lon qilinishi lozim bo'lgan muddatidan kamida besh ish kuni oldin ishchi guruh kotibiga taqdim etiladi.

7. Taqdim etilgan ma'lumotlar Ishchi guruh a'zolari tomonidan ko'rib chiqiladi va Ishchi guruh rahbari tomonidan rasmiy veb-saytda joylashtirish yuzasidan qaror qabul qilinadi, ularni e'lon qilish maqsadida ishchi guruh kotibi "Axborot texnologiyalari markazi" DUKga taqdim etadi.

8. Budjet jarayoni ochiqligini ta'minlash maqsadida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan tegishli ma'lumotlarning rasmiy veb-saytlarga joylashtirib borilishini monitoring qilish hamda Ochiqlik indeksini yuritib borish uchun mas'ul etib Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlar instituti (D. Po'latov) belgilansin.

Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlar instituti (D. Po'latov) Ochiqlik indeksini yuritib borish bo'yicha ikki nafar mas'ul xodim biriktirsin.

9. Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlar instituti (D. Po'latov) har chorak yakunlariga ko'ra, chorakdan keyingi ikkinchi oyning **10-sanasiga qadar** budjet ochiqligini ta'minlash yuzasidan belgilangan ma'lumotlarning barcha darajadagi budjet taqsimlovchilar, davlat maqsadli jamg'armalari hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan ularning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini o'rganib baholab boradi va baholash natijalarini Davlat budjeti siyosati departamenti (Sh. Muxamedov)ga taqdim etib boradi.

Bunda, Davlat budjeti siyosati departamenti (Sh. Muxamedov) baholash natijalarini ko'rib chiqib, hisobot taqdim etilgan kundan boshlab besh ish kuni ichida Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim etilishini ta'minlasin.

10. Mas'ul xodimlar tomonidan baholash tizimi amalga oshirilishi haqqoniyligi bo'yicha Ishchi guruh nazorat o'rnatadi hamda har chorak yakunlari bo'yicha shakllangan baholash ko'rsatkichlarini tahlil qilib boradi.

11. Axborot xizmati **vazirlik va uning huzuridagi** tashkilotlarning baholash natijalari muntazam ravishda vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali e'lon qilib borilishini ta'minlasin.

12. "Axborot texnologiyalari markazi" DUK (O. Eshchanov):

Davlat budjeti siyosati departamenti (Sh. Muxamedov) bilan vazirlikning rasmiy veb-sayti (imv.uz)ning bosh sahifasida alohida "Davlat moliyasi statistikasi" bo'limi

13. Davlat budjeti siyosati departamenti (Sh. Muxamedov) Axborot xizmati bilan e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etuvchi (ishlab chiquvchi) mas'ul xodimlar tomonidan o'zlariga biriktirilgan vazifalarning belgilangan muddatlarda hamda sifatli ijro etilishini qayd etib borsin hamda ushbu vazifalarni bajarishda sustkashlikka yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy choralar ko'rish yuzasidan rahbariyatga taklif kiritib borsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Budget jarayonining ochiqligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan "Ochiqlik indeksi"ni joriy etish to'g'risida"gi 2022-yil 10-avgustdagi 110-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

15. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari I. Norqulov zimmasiga yuklansin.

Vazir



D. Kuchkarov